

## О‘ЗБЕК ТИЛИ ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАРИНИНГ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИК ТАБИАТИ ВА ТАВСИФИ

*O‘rinova Sayyora Xolmirzayevna*

*Namangan davlat universiteti*

*Lingvistika (o‘zbek tili) 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Maqolada zamonaviy tilshunoslikda yangi kelib chiqqan yo‘nalishlardan biri bo‘lgan lingvokultura haqida so‘z boradi. Qolaversa, o‘zbek frazeologik birliklarni lingvokulturologik tabiati va tilshunoslikdagi ahamiyati haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** tilshunoslik, lingvokulturema, lingvomamlakatshunoslik, frazeologiya, semantik tuzilish.

Zamonaviy tilshunoslikda tilni lingvo-kognitiv, kommunikativ yo‘nalishlardan kelib chiqib o‘rganish muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Tilning mohiyatini o‘rganish har bir millatning ma‘naviy merosi, tarixi, milliy qadriyatlari, madaniy boyliklarini chuqurroq anglab yetishga imkon yaratib beradi. Til va madaniyat o‘rtasidagi aloqa, milliy mentalitetni anglash tilning mohiyati va uning kommunikativ funksiyasini chuqur va ilmiy o‘rganib, tahlil qilishga zarurat yaratib beradi. Xalqlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy va o‘zaro madaniy aloqalar ham jadallik bilan rivojlanmoqda. Va bu aloqalarni shakllantirib, mustahkamlash maqsadida yangi tillarni o‘rganish va ishlatish ham kengayib bormoqda.

Bugungi kunda insonlar, xalqlar, mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaro madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning o‘zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy o‘ziga xos ko‘rinishi kabi qator masalalarni o‘z ichiga olgan, alohida yo‘nalish va predmetni o‘z ichiga olgan yangi soha lingvokulturalogiyaning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Lingvokulturemalarga madaniyatning biror bo‘lagini aks ettiruvchi so‘zlar, frazeologik birliklar, so‘z birikmalari, gaplar, paremiyalar, murakkab sintaktik butunliklar, matnlar va hokazolar kiradi. Lingvokulturema mazmun va ifoda planiga ega, ifoda plani yuqorida ko‘rsatilgan birliklar, mazmun planini esa o‘sha birliklarning semantikasi tashkil qiladi. Demak, lingvokulturema kontseptdan o‘zining mazmun va ifoda planiga ega bo‘lishi bilan farq qiladi, lingvokulturologiya uchun xalq madaniyatini lisoniy ko‘rinishda namoyon etish asosiy vazifa hisoblanadi. Uningcha, “lingvokulturema” tushunchasi qiyosiy tilshunoslik uchun foydali, “zero til – madaniy fakt, biz meros qilib oladigan madaniyatning tarkibiy qismi va ayni paytda qurol hamdir. Xalq madaniyati til orqali verballashadi, aynan til madaniyatining tayanch,

asosiy tushunchalarini harakatga keltiradi va ularni belgilar ko'rinishida, ya'ni so'zlar vositasida ifoda etadi" [2.15].

Turli xalqlar madaniyatida mavjud yuqorida keltirilgan o'ziga xosliklarning tilda aks ettirilishini o'rganish lingvokulturologiyaning asosiy vazifalaridan biridir. Lingvokulturologiya tilshunoslikning yosh, yangi sohasi bo'lsada, biroq unda frazeologik, konseptologik, leksikografik va lingvodidaktik yo'nalishlar shakllanib ulgurgan. Lingvokulturologiyaning asosiy vazifasi – til bilan madaniyatning bog'liq tomonini, ya'ni madaniyatga oid tushunchalarning tilda va uning turli vositalarida ifodalanish usullarini o'rganish, til va xalq mentaliteti o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tavsiflashdan iborat. O'zbekistondagi bir qator olimlar, xususan, A.Abdiazizov, D.Ashurova, Sh.Safarov, O'. Yusupov, A.Mamatov va boshqa tadqiqotchilar lingvokulturologiya sohasiga salmoqli hissa qo'shib kelmoqdalar. Lingvokulturologik tadqiqotlar sotsiolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, lingvomamlakatshunoslik, madaniyatshunoslik va boshqa shunga yaqin sohalararo miqyosda olib boriladi. Professor D.Ashurova fikricha, lingvokulturologiyaning eng muhim vazifalaridan biri – metodologik shart-sharoitlarni aniqlashtirish, tadqiqotlarning konseptual qonun-qoidalari hamda madaniyat nuqtayi nazaridan ajratib olingan til birliklarini (lingvokulturemalar) tizimiga solish va tasniflash muammolarini ishlab chiqish hisoblanadi.

Lingvokulturologiya madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o'rtasida yuzaga kelgan umumlashma fan hisoblanadi va u madaniyatning o'zaro ta'siri va bog'liqligi, bu bog'liqlikning shakllanishi hamda yaxlit bir sistema sifatida til va tildan tashqarida aks etishi kabi hodisalarni o'rganish bilan shug'ullanadi. Bir tomondan lingvokulturologiya insoniyatning madaniy faktordagi o'rni, ikkinchi tomondan esa til faktoridagi insonning o'rnini o'rganadi. Hozirgi vaqtda lingvokulturologiya jahon, xususan rus, fransuz, o'zbek tilshunosligida eng rivojlangan yo'nalishlardan biri bo'lib, bu borada bir qancha o'quv qo'llanmalar yaratilgan. O'zbek tilshunosligida ham bu sohada qator ishlar olib borilmoqda. Keyingi yillarda tilning frazeologik tizimiga ham alohida e'tibor berilmoqda. Frazeologik birliklar xalqlarning madaniyati va milliy mentalitet haqidagi ma'lumotlarni ifodalaydigan til birliklari. Biz frazeologik iboralar orqali xalqning milliy mentaliteti, millatning etnomadaniyati haqida kerakli ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin. Umuman olganda, frazeologiya millatning yashash tarzi, madaniyati, milliy an'analari va bilimining yorqin ifodasi. Frazeologik birliklar millatning madaniyatini ko'rsatadigan ma'lumotlar manbai va muayyan lingvomadaniyatni ifodalaydigan yorqin til birligidir. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, zamonaviy tilshunoslik rivojida frazeologiyani milliy-madaniy xususiyatlarini o'rganish juda ham munosibdir. Ko'pgina tilshunoslar tomonidan tan olinganidek, tilning frazeologiyalarga boyligi har bir xalqning milliy-madaniy o'ziga xosligini ifodalaydigan vosita bo'lib xizmat qiladi. Chunki mohiyatan, bunday til birliklari shu

til foydalanuvchilarining milliy madaniyatini aks ettiradi. Shu sababdan ham bugungi ko'pgina tilshunoslar frazeologik birliklarni o'rganishga alohida e'tibor berib kelishmoqda. Tilshunos V. A. Maslova aytgan edi: "Semantik tuzilishiga ko'ra frazeologik birliklar xalqning davomiy rivojlanish jarayonini ifodalaydi, madaniy qoliqlar, standartlar, timsollarni avloddan avlodga olib uzatadi, muhrlaydi va yozib qo'yadi." Frazeologizm tushinchasiga chuqurroq to'xtalib o'tsak.

Frazeologizmlar biror narsa – hodisani atash, nomlash vazifasinigina bajarmaydi, balki shu predmet yoki hodisani aniqlashtirib, ularni emotsional va obrazli tarzda baholaydi. Ayni shu jihati bilan ham ular lingvokulturologiya fani uchun ahamiyatli hisoblanadi. Frazeologik iboralar zamirida ma'lum obraz, konkret hodisa, predmet tasavvuri yotadi. Bunday obrazlilik frazeologizmlarning uslubiy imkoniyatlarini oshiradi, ularni tilning kuchli ifoda vositalaridan biriga aylantiradi. Frazeologik birlik yoki frazema, ibora kelib chiqish jihatidan juda qadimiy bo'lsa-da, frazeologiya fani tarixi bir necha yuz yilni o'z ichiga oladi.

Frazeologiya nazariyasining ilk tadqiqotchisi, shubhasiz, shveysar-fransuz tilshunosi Charl Balli (1865-1947) hisoblanadi. U o'zining "Stilistika ocherki" (1905) va "Fransuz stilistikasi" (1909) nomli asarlariga so'z birlashmalari, ya'ni frazeologizmlarni tadqiq etuvchi maxsus boblar kiritgan edi. U frazeologik birlashmalarning tashqi va ichki belgilarini bir-biridan farqlagan edi. Uning ta'limotiga ko'ra, bunday birlashmalarning struktural xususiyatlari tashqi belgilari, semantik tabiati esa uning ichki belgilari sanaladi. Frazeologiya asosan frazeologik birlashmalarning semantik tabiatini, ichki belgilarini o'rganish bilan shug'ullanishi lozim[2.:157]. F.de Sossyur esa "Umumiy tilshunoslik kursi" (1916) asarida sintagma, uning belgilari haqida so'z yuritar ekan, tilda shunday tayyor birikmalar («ГОТОВЫЕ РЕЧЕНИЯ») borki, ularning uzual xarakteri ma'nosi va sintaktik xususiyatidan kelib chiqadi. Ularni improvizatsiyalash (tayyorgarliksiz qo'llash) mumkin emas, chunki bunday birikmalar tayyor holda, an'anaga ko'ra qo'llanadi, degan edi [3.:157].

Frazeologizmlar xalq boyligi bo'lganligi sababli ham uning manbalari u yoki bu xalq yashayotgan joyining tabiati, iqtisodiy tuzumi, tarixi, madaniyati, hayot tarzi, og'zaki ijodiyoti, badiiy adabiyoti, san'ati, fani, urf-odati kabilar bilan chambarchas bog'lanadi. O'zbek tili leksikasida mavjud frazemalarning deyarli hammasi lingvokulturologik xususiyatga ega. Chunki Masalan, "Qo'li ochiq" frazemasini saxiy ma'nosida qo'llanuvchi belgi bildiruvchi frazema bo'lib, aynan tanti va mehmondo'st xalqimizning vakillariga nisbatan ishlatiladi. Yoxud "Do'ppisini osmonga otmoq" iborasini oladigan bo'lsak, uning aytilishi va eshutilishiyoq ko'z o'ngimizda o'zbek xalqini va uning samimiy, sodda, tanti bir vakilining xushchaqchoq qiyofasini gavdalantiradi. Og'zini suvi keldi frazemasida havasi keldi; ichgisi keldi ma'nolari ifodalangan. Undan narida kattakon doshqozonda osh damlab qo'yildi. Zarchuva solingan sap-sariq. Og'zining suvi kelib ketdi."Yoshlik". Yoki sirtiga suv yuqtirmas

iborasida hech narsani bildirmaydigan, bilsa ham psrvo qimaydigan odam ma'nosini ifodalaydi.

“Qo'y o'gzidan cho'p olmagan” [5.:295]– nihoyat darajada beozor, mo'min iborasi fe'l-atvor bildiruvchi frazema bo'lib, yuvosh, xushfe'l insonlarga nisbatan ishlatiladi.

Bu frazemaning ham lingvokulturologik ahamiyati mavjud. Bunda ham shaklan, ham mazmunan xalqimiz madaniyati va ma'naviyatiga xos belgilar mavjud. Xalqimiz turmush tarzida azaldan chorvadorlik ishi muhim o'rin tutgan. Iborada aynan yuvosh jonivor qo'y obrazining keltirilganligi ham mana shu omilga bog'liq.

Umuman, lingvokulturologiyada frazeologizmlar: - Muayyan til tabiatiga xos milliy realiyalarni aniqlash (bosh-oyoq sarpo, do'ppisini osmonga otdi, ko'rpassiga qarab oyoq uzatmoq, xamir uchidan patir, to'nini teskari kiyib olmoq va hokazo);

- Fikrni obrazli ifodalash (do'ppisi yarimta, ko'ngli tog'day ko'tarildi, ko'zini yog' bosgan, yog' tushsa yalaguday...);

- So'zlovchi shaxs dunyoqarashini ko'rsatish (qo'yday yuvosh, itday qaysar, quyonyurak, bag'ritosh, yuzi shuvut...);

- Muayyan mentalitet-millatga xos hududiy, madaniy, ijtimoiy, diniy o'ziga xos voqea-hodisalarga, shaxslarga ishora (Almisoqdan qolgan, qiyomat qarz, oqposhshoning laychasi, afandiga ulfatbashara, daqqiyunusdan qolgan, alifni kaltak deyolmaslik...);

- Jonli muloqot muhitini shakllantirish kabi maqsadlarga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, frazeologizmlarni biz chinakam etnomadaniy birliklar deb atashimiz mumkin. Bunday etnomadaniy birliklarni o'rganish va shu asosda muayyan xalq madaniyati, mentalitetidan xabardor bo'lish kabi masalalar lingvokulturologiyada frazeologizmlarni o'rganishdan kelib chiquvchi bosh maqsadlarimizdan biridir. Ayniqsa, frazeologizmlarni qiyosiy aspektda o'rganish asosida xalqlar, mentalitetlar o'rtasidagi o'ziga xosliklar yoki aksincha, mushtarakliklarni aniqlash oson kechadi. Bugungi kun lingvokulturologiyasida ayni shu aspektdagi ishlar katta miqdorni tashkil etadi. Umuman, frazeologik birliklarni o'rganish o'zbek tilshunosligi, xususan, lingvokulturologiya fani oldida yangi imkoniyatlarni ochadi, til lug'at tarkibining kengayishiga sabab bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Rahmatullayev. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – T.: O'qituvchi. 1978
2. Yo'ldoshev B. Frazeologik uslubiyat asoslari. – Samarqand, 1999
3. Maslova V. A. Lingvokulturologiya: Ucheb. Posobie. – M.: Academia, 2001-208s. 2. Vorobyev V. V. Lingvokulturologiya. Teoriya i metodi. –M., 1997.

4. Yo'ldoshev. B. "Hozirgi frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari". Toshkent 1993.
5. X. Berdiyurov, R. Rasulov, B. Yo'ldoshev. O'zbek frazeologiyasidan materiallar. Sam., Birinchi qism, 1976.
6. Khakimov, S. R., & Sharopov, B. K. (2023). Educational Quality Improvement Events Based on Exhibition Materials in Practical Training Lessons. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education, 1(2), 5-10.
7. Khakimov, S., & Choriyeva, V. (2023). THE PLACE AND SIGNIFICANCE OF INCLUSIVE EDUCATION IN MODERN EDUCATIONAL PROCESSES. Евразийский журнал предпринимательства и педагогики, 1(1), 116-118.